



O`smir o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirishdagi muammo va yechimlari

Jabborova Oyshaxon

Namangan viloyat Namangan tuman

12-sonli maktabning psixologi

Annotatsiya: Ilk o`spirinlarga xos xususiyatlardan biri hayotiy rejalarning shakllanishidir. Bir tomondan hayotiy rejalar shaxs o`z oldiga qo`ygan maqsadlarni umumlashtirishi va mustahkamlashi natijasida vujudga keladi.

Boshqa tomondan maqsad va motivlarning konkretlashishi jarayoni ro`y beradi. Hayotiy reja – bir vaqtning o`zida ijtimoiy va axloqiy hodisadir. Kim bo`lish (kasbiy o`zlikni anglash) va qanday bo`lish (axloqiy o`z-o`zini anglash) muammolari o`smirlik davrida farqlanmaydi. O`smir va o`spirinlarning hayotiy rejalari tarqoq bo`lib, ularning amaliy faoliyatiga mos kelmaydi. Ilk o`spirinlarga xos xususiyatlardan biri hayotiy rejalarning shakllanishidir. Bir tomondan hayotiy rejalar shaxs o`z oldiga qo`ygan maqsadlarni umumlashtirishi va mustahkamlashi natijasida vujudga keladi. O`smir va o`spirinlarning hayotiy rejalari tarqoq bo`lib, ularning amaliy faoliyatiga mos kelmaydi. Ilk o`spirinlar “Hayotiy rejalariniz bormi?” degan savolga “ha” deb javob berishgan, lekin ko`pchilik hayotiy reja sifatida o`qish, kelajakda qiziqarli ish bilan shug`ullanish, sodiq do`stlarga ega bo`lish va ko`p sayohat qilish deb ta`kidlashgan. Hayotiy reja faqat so`nggi natijagina emas, unga erishish usul va yo`llari, unga zarur bo`ladigan ob`ektiv va sub`ektiv imkoniyatlar e`tiborga olingandagina bu so`zning asl ma`nosi vujudga keladi. Faol va xayolotga beriluvchan orzudan farqli ravishda, hayotiy reja – bu faoliyat rejasidir, u birinchi navbatda kasb tanlashga bog`liq. Ilk o`spirin uchun kasb tanlash avvalo axloqiy muammodir. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham shaxs mehnat qilish huquqi



bilan birga, o'z qobiliyati, layoqati va qiziqishiga ko'ra kasb tanlash huquqiga egaligi ta'kidlangan.

Bugungi kunda kasb tanlash har xil nuqtai nazardan qarash mumkin bo'lgan ko'p o'lchovli va ko'p darajali jarayondir. Birinchidan, jamiyat shakllanayotgan shaxs oldiga qo'ygan vazifalar seriyasi sifatida, ularni shaxs ma'lum vaqt davomida ketma-ket hal qilishi zarur. Ikkinchidan, individ o'z qiziqish va layoqatlarini shakllantiradigan qaror qabul qilish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Uchinchidan, hayotning individual uslubini shakllantirish jarayoni sifatida, kasbiy faoliyat uning bir qismi sifatida namoyon bo'ladi. Bu uch nuqtai nazar o'zaro bir-birini to'ldiradigan ishning har xil tomonlaridir. Yosh davrlari psixologiyasida kasb tanlash bir necha bosqichdan iborat. Birinchi bosqich – bolalar o'yinlari bo'lib, unda bola o'ziga har xil kasbiy rollarni qabul qiladi va shu bilan bog'liq xulq-atvorning alohida elementlarini “o'ynaydi”. Ikkinchi bosqich – o'smirlik xayoli bo'lib, o'smir orzularida, o'zini u yoki bu qiziqarli kasbning namoyondasi sifatida ko'radi. Uchinchi bosqich - ilk o'spirinlik davrini qamrab oladi – dastlabki kasb tanlashdir. Har xil faoliyat turlari o'smirning qiziqishlari tomonidan saralanadi va baholanadi (“Men tarixiy romanlarni yoqtiraman, tarixchi bo'laman”), keyin qobiliyatlari nuqtai nazaridan kasb tanlashga harakat qilinadi (“Men matematikani yaxshi o'zlashtirayapman, matematik bo'lsammikan?”), eng so'nggida qadriyatlar tizimi nuqtai nazaridan qarab chiqiladi (“Men kasal odamlarga yordam berishni hohlayman, vrach bo'laman”; “Ko'p pul topishni hohlayman, qaysi kasb bu talabga javob beradi?”). Qiziqishlar, qobiliyatlar va qadriyatlar kasb tanlashning har bir bosqichida namoyon bo'ladi. Fanga qiziqish o'quvchini u bilan ko'proq shug'ullanishga undaydi, bu esa uning qobiliyatlarini rivojlantiradi, qobiliyatlar esa faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlaydi va qiziqishlarni mustahkamlaydi. To'rtinchi bosqich – amaliy qaror qabul qilish, kasb tanlash bosqichi bo'lib, o'z ichiga ikki bosh tarkibiy qismni oladi: avval biror faoliyat bilan shug'ullanish istagi paydo bo'ladi, keyin esa konkret soha tanlanadi (“O'qituvchi bo'laman”, “Matematika o'qituvchisi bo'laman”). Kasb tanlash ko'p bosqichli jarayon. 9-sinf o'quvchilari akademik litseyga yoki qaysi kasb – hunar kollejiga topshirishlarini tanlashlari zarur. Qiziqishlar, qobiliyatlar va qadriyatlar yo'nalganligidan tashqari qaror



qabul qilishda o'zining imkoniyatlarini – oilaning moddiy sharoiti, o'quv tayyorligi darajasi, sog'lig'i va boshqalarni hisobga olish ham muhim rol o'ynaydi. Kasb tanlash ilk o'spirindan ikki xil ma'lumotni talab qiladi: kasb dunyosi va har bir kasbga qo'yiladigan talablardan xabardorlik; o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini bilish. U ma'lumot ham bu ma'lumot ham ilk o'spirinlarga etishmaydi. Ilk o'spirinlarning hayotiy rejalarini amalga oshirish va kasb tanlashi ijtimoiy sharoitlarga, ayniqsa ota-onaning umumta'lim darajasiga bog'liq. Ota-onaning ta'lim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, farzandlarining oliy-o'quv yurtida o'qishni davom ettirishi va bu rejalarini amalga oshirish ehtimoli shunchalik yuqoridir. Hayotiy rejalarini amalga oshirish ehtimoli yigitlarda qizlarga nisbatan yuqoridir. Kasbiy yo'nalganlik nafaqat ijtimoiy, balki psixologik muammo hamdir. Psixologiyada kasbiy yo'nalganlik bo'yicha uch nazariy nuqtai nazar mavjud. Birinchi nuqtai nazar faoliyatning muvaffaqiyati va usullari bog'liq bo'lgan individual xususiyatlarning amaliy o'zgarimasligi va barqarorligi haqida g'oyaga asoslangan. Bunda birinchi tomondan, u yoki bu ishga mos insonlarni kasbga yo'llash va tanlashga urg'u beriladi, ikkinchi tomondan u yoki bu insonning individual xususiyatlariga mos kasblarni Ikkinchi nuqtai nazar qobiliyatlarni maqsadga muvofiq shakllantirish g'oyasidan kelib chiqadi, bunda har bir insonning muhim xislatlarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Kasb tanlashda kasbiy maslahat juda muhim hisoblanadi. Bu jiddiy tayyorgarlikni talab qiladigan qiyin ishdur. Hozirgi vaqtda har bir maktab psixologi tomonidan o'tkaziladigan 9-sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan kasbga yo'naltirish ishlari bo'yicha diagnostik va maslahat ishlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Kasb tanlashda – kasb tanlash amalga oshiriladigan Yosh, ilk o'spirinning ma'lumotlilik darajasi va uning intilish darajasi muhim omillar hisoblanadi. Biz yuqorida ko'rib o'tganimizdek, kasb tanlash murakkab va uzoq jarayon. Muammo na faqat umumiy davomiylikda, balki bosqichlarning ketma-ketligida hamdir. Bu erda ikkita xavf mavjud. Ulardan birinchisi ilk o'spirinlarning kasb tanlash jarayonini aniq va barqaror qiziqishlari bo'lmaganligi uchun keyinga qoldirishidir. Bu keyinga qoldirish umumiy etukmaslik, xulq-atvorning infantilligi bilan qo'shiladi. Bu holat kasb tanlash jarayoni kattalik va barqaror “Men” obrazining, o'z-o'zini hurmat qilishning asosiy komponentlaridan biri ekanligini esga olsak tushunarli



bo'ladi. Ota-onalarning urinishlari (ayniqsa ziyoli oilalarda ko'p uchraydi) to'g'ridan-to'g'ri psixologik ta'sir ko'rsatish yordamida bu jarayonni tezlashtirmoqchi bo'ladilar (“Sen qachon kasb tanlaysan? Men sening Yoshingda ...”). Bu esa bolalarda xavotirlanishni kuchaytirib, ba'zan hech qanday kasb tanlamasdan, turli sevimli mashg'ulotlarni tanlashgacha bo'lgan salbiy natijalarga olib keladi. Bunda o'z vaqtida o'qish davomida bolalarning qiziqishlari va dunyoqarashini kengaytirish, har xil faoliyat turlari bilan tanishtirish, amaliy mehnat ko'nikmalarini shallantirish sifatida yordam ko'rsatish mumkin. Erta kasbiy tanlash ijobiy omil hisoblansa-da, uning ham o'ziga yarasha kamchiliklari bor. O'smirlarning qiziqishlari tasodifiy, vaziyatli omillarga bog'liq. O'smir faqat faoliyatning mazmuniga qarab ish tutadi, uning boshqa jihatlarini payqamaydi. Ilk o'spirinlarning bo'lajak kasblari haqida xabardorlik darajasi ham muhim hisoblanadi. Yigit va qizlar ular tanlaydigan kasblar doirasini, har bir kasbning aniq xususiyatlarini bilmaganliklari uchun kasbni tasodifan tanlaydilar. Kasb haqida ma'lumotga ega emaslik oliy o'quv yurtiga kirganlar orasida ham uchraydi. “Bo'lg'usi kasbingizning xarakteri, mazmuni va sharoitidan xabardormisiz?” degan savolga talabalarning to'rtdan bir qismigina “ha” javobini berishgan. Inson kasb tanlayotgan vaqtida qanchalik kichik bo'lsa, uning kasb tanlashi shunchalik mustaqil bo'lmaydi, shaxsiy qadriyatlar tizimi asosida emas, ma'lumotlarning etarli bo'lmaganligi tufayli kimningdir tavsiyasiga ko'ra amalga oshiriladi. Kasb tanlash ma'lum shaxsiy intilish darajasini aks ettiradi. U o'z ob'ektiv imkoniyatlarini hamda qobiliyatlarini baholashdan iborat. Bundan tashqari unga sub'ekt tomonidan anglanmaydigan kasbga qo'yiladigan talablar ham ta'sir qiladi. 15-17 Yoshli yigit va qizlarning intilish darajasi ko'pincha yuqori bo'ladi. Bu normal va foydali holat bo'lib, Yoshlarni yanada izlanishga va qiyinchiliklarni bartaraf etishga undaydi. Dastlabki hayotiy muvaffaqiyatsizlik tufayli, masalan oliy o'quv yurtiga topshirishga urinishdan kelib chiqadigan jarohatdan qanday qutulish mumkin? Ba'zi konkursdan o'ta olmagan Yoshlar ularning barcha hayotiy rejalari puchga chiqqanligi, to'g'rilab bo'lmaydigan halokat ro'y berdi, deb o'ylaydilar. Lekin sotsiologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oliy o'quv yurtida o'qishni jiddiy hoxlovchilar o'zlarining hayotiy rejalari keyinroq ham amalga oshirishi mumkin. Insonning Yoshi



ulg'aygan sayin hayotiy qadriyatlari va hayotiy rejalari o'zgarib boradi. Oliy o'quv yurtiga kirishni hohlaganlar, dastlab o'qishga kirganlari uchun xursand bo'ladilar. Kasbni to'liq o'ylab tanlamaganlar uchun keyinchalik qiyinchiliklar vujudga keladi: ularning ayrimlari o'qishni eplay olmaydi, boshqa birlari tanlagan mutaxassislikdan ko'ngli to'lmaydi, yana boshqalari oliy o'quv yurtini to'g'ri tanlaganiga shubhalanadi. L.V.Lisovskiy tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, ”Yana kasb tanlashga to'g'ri kelsa, yana shu kasbni tanlarmidingiz?” degan savolga so'ralganlarning uchdan bir qismi rad javobini berishgan. Yuqori kurslarda tanlagan kasbidan qoniqadiganlar kamaymasdan, aksincha ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziyev E Psixologiya T.1994
2. Krutetskiy V.A. Psixologiya obucheniya I vospitaniya shkolnikov .
3. Kazakov V.G.Psichologiya M.1989